

Boshlang'ich Ta'limda O'qitishning Didaktik Tamoyillari

O'ktamova M. A

Buxoro Davlat Pedagogika instituti 1-kurs doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limni didaktik tamoyillar asosida o'qitishning ustuvorligi hamda didaktik prinsiplar orqali darsni tashkil etish, o'quvchilarning darsga qiziqishini orttirish haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, didaktika, didaktikaning kategoriyalari, faollik, ko'rgazmalilik, tushunarlilik, namunalardan foydalanish, bilimlarni qo'llash tamoyillari.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari jarayonida boshlang'ich ta'limda o'qitish tamoyillari asosiy ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Buning uchun boshlang'ich ta'lim didaktikasi asoslarini anglab olish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogika fanining muhim tarkibiy qismidan biri bu didaktikadir. "Didaktika" so'zi lotincha bo'lib, o'qitish nazariyasi va qonuniyatlarini o'rganadi. Didaktikaning asosiy kategoriyalari quyidagilardan iborat:

- 1) o'qitish;
- 2) ta'lim berish;
- 3) o'qish.

Didaktikaning o'qitish kategoriyasi ta'limni ilmiy va tizimli qonuniyatlar asosida tashkil qilishni ifodalaydi.

Didaktikaning ta'lim berish kategoriyalari quyidagilardan iborat:

- ✓ bilim berish;
- ✓ ma'lumotlar uzatish;
- ✓ o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish;
- ✓ o'qish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal etish;
- ✓ o'quvchilarning ijodkorligi va mustaqilligini shakllantirish;
- ✓ o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash.

Ta'lim berish ya'ni didaktikaning asosiy tamoyillari quyidagilar:

Faollik tamoyili. Bunda o'quvchi o'z harakati bilan fanlarni yaxshi o'rganadi va o'zlashtiradi. O'qituvchi o'quv jarayonini shunday tashkillashtirishi kerakki, o'quvchilarning o'lari fanga qiziqsin, uni bilishga harakat qilsin, intilsin. Buning uchun o'quvchilar darsga faol qatnashishi lozim.

Nazariy bilim bilan amaliy bilimning bir-biri bilan bog'liqligi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga nazariy bilim berish bilan birga uni amaliy jihatdan ham tushuntirishi kerak

Ko'rgazmalilik. Bilimlarni iloji boricha ko'rgazmali va real hayotga yaqin tarzda taqdim etish tilning tushunarligi va ta'lim jarayonida visual vositalardan foydalanishni, bevosita ish holatida va real obyektlarda o'qitish talab qiladi. Darslar ko'rgazmali qurollar yordamida berilsa, o'quvchilarning o'zlashtirishlari osonlashadi.

Tushunarliklik. O'quv materialining mazmuni shunday tanlangan va tuzilgan bo'lishi kerakki, o'quvchilar ularni o'zlaridagi bilimlar bilan bog'lay olishsin va uni tushunishda qiynalmasin. Ya'ni, o'quv materialining mazmuni o'quvchining bilim saviyasiga mos kelishi kerak.

Namunalardan foydalanish. O'quv materialining mazmunini tushuntirish uchun har doim namunaviy materiallardan foydalanish kerak.

Ilmiylik. O'quv materialining mazmuni haqiqiy va ilmiy jihatdan tasdiqlangan yoki ilmiy tadqiqotlar asosida sinalgan bo'lishi kerak. Shuningdek, fanning yangi yutuqlari va kashfiyotlarini o'zida aks ettirishi lozim.

Bilimlarni qo'llash. O'quvchitalabalar olgan bilimlarini amalda qo'llay olishi kerak. Shuning uchun bu bilimlar qo'llanilgan va amaliy vaziyatda sinalgan bo'lishi zarur. Bunday amaliy vaziyatlar o'qituvchi tomonidan yaratilishi lozim.

Natijalarni mustahkamlash tamoyili. O'qishdagi muvaffaqiyatlar tan olinishi va baholanishi kerak. Bu o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida doimiy aloqa bo'lishini talab qiladi. Natijalar esa maxsus «Baholash varaqalari» da qayd qilinishi kerak.

Didaktik tamoyillar o'qituvchi faoliyatining yo'l-yo'rig'i sifatida hizmat qiladi, alohida olganda esa tushunarliklik printsipini qo'llab quvvatlaydi.

O'qitishning asosiy qoidalari:

- ✓ tushunarlikdan – tushunarsizga;
- ✓ yaqindan uzoqqa;
- ✓ osondan qiyinga;
- ✓ aniqdan mavhumga;
- ✓ umumiydan hususiyga, umumlashtirilgandan yakkaga;
- ✓ xususiydan umumiyga.

O'zbekiston sharoitida umumiy didaktika masalalari yaxshi tadqiq etilgan. Ayni paytda, boshlang'ich ta'lim didaktikasi bo'yicha ilmiy ishlanmalar kam. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida talabalarning boshlang'ich ta'lim didaktikasi muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqotchiligini kuchaytirish dolzarb bo'lib turibdi.

Boshlang'ich ta'lim didaktikasining umumiy samaradorligi 4-sinf bitiruvchilarining bilim va ko'nikma darajasi bilan belgilanadi. O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning tashabbusi bilan boshlang'ich ta'lim bitiruvchilarini umumiy, Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablarga tayyorlash vazifasi qo'yildi. Shu ma'noda boshlang'ich ta'limni bitiruvchilar ushbu ta'lim maskanlarining qaysi birida ko'p o'qishiga qarab boshlang'ich ta'lim didaktikasining umumiy samaradorligi baholanishi tarkib topdi. Bu yangilik boshlang'ich ta'lim didaktikasi samaradorligida asosiy mezonlardan biri sifatida qaralmoqda.

Xulosa qilganda, hozirgi zamon "Boshlang'ich ta'lim didaktikasi" mazmuni o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan pedagogik fanlar tarkibida muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar:

1. Султонова С. Х. СИНТАКСИЧЕСКИЕ КОНСТРУКЦИИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – Т. 2. – №. 15. – С. 769-775.
2. Ханазарова С., Султонова С. Х. МОТИВАЦИЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА //SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY. – 2023. – Т. 1. – №. 10. – С. 8-12.
3. Султонова С. Х., Насириддинова М. М. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРАКТИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО (НА ПРИМЕРЕ ОНЛАЙН-ДОСКИ) //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 1346-1352.
4. Султонова С. Х. КОММУНИКАТИВНЫЕ АСПЕКТЫ В МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИИ РКИ В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА //International journal of conference series on education and social sciences (Online). – 2022. – Т. 2. – №. 3.
5. Султонова С. Х. УЧЕБНО-РЕЧЕВАЯ СИТУАЦИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ УЗБЕКСКИХ УЧАЩИХСЯ ЭЛЕМЕНТАРНОГО И БАЗОВОГО УРОВНЕЙ //Русское слово в международном образовательном пространстве: история и современность. – 2021. – С. 437.
6. Султонова С. Х. ОБУЧЕНИЕ НАУЧНЫМ ТЕРМИНАМ НА ЗАНЯТИЯХ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – Т. 11. – №. 1. – С. 777-784.
7. KARIMOVA U., SAYYORA S. Роль языка в процессе перевода //3rd Eurasian Conference on Language and Social Sciences. – 2018. – С. 68.
8. Носирова З., Султонова С. Х. ПРИВЕТСТВИЕ И ПРОЩАНИЕ В РУССКОМ И КОРЕЙСКОМ РЕЧЕВОМ ЭТИКЕТЕ //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2023. – Т. 2. – №. 23. – С. 4-12.
9. Султонова С. Х. Русский язык в Узбекистане: вчера и сегодня //Гуманитарный трактат. – 2018. – №. 25. – С. 8-10.
10. Kubayeva M. B. IMPLEMENTATION OF VISUAL-DIDACTIC GAMES IN ECOLOGICAL EDUCATION OF STUDENTS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES. – 2022. – Т. 3. – №. 01. – С. 1-4.
11. Kubaeva M. B. Q. THE USE OF VISUAL TECHNOLOGIES OF EDUCATION IN ECOLOGICAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN AS A PEDAGOGICAL PROBLEM //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2021. – Т. 2. – №. 06. – С. 6-10.
12. Gafurova G. Developing productive skills assessment tasks //Журнал иностранных языков и лингвистики. – 2020. – Т. 1. – №. 1. – С. 34-38.
13. Bakhtiyorovna G. G. EQUIVALENCE AND PRAGMATIC ASPECTS OF TRANSLATION OF JOURNALISTIC TEXTS //European journal of literature and linguistics. – 2023. – №. 1. – С. 24-29.
14. Gafurova G. POETIC STRUCTURES IN A STORY “BORSA KELMAS DARVOZASI” BY SAID AKHMAD //Журнал иностранных языков и лингвистики. – 2021. – Т. 2. – №. 3.
15. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Didaktika>
16. <https://uz.m.wiktionary.org/wiki/didaktika>

17. <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-ta-limda-didaktik-o-yinli-ta-lim-texnologiyalarining-samaradorligi/viewer>
18. <https://zenodo.org/record/6573215/files/Serikbayeva%20Aqmaral%20Xusanovna>
19. <https://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/content/2269/html/70169/O'yinli%20texnologiyalar.htm>